



**FE'L SO'Z TURKUMINI O'QITISHDA GRAFIK ORGANAYZERLARDAN  
FOYDALANISH  
(5-7 sinf ona tili darsliklar misolida)**

**Hamroyev Umid Mustafoyevich,**  
*ToshDO'TAU erkin tadqiqotchisi*

**DOI:** <https://doi.org/10.5281/zenodo.15206603>

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada ona tili darslarida fe'l turkumini o'qitishda grafik organayzerlarning o'rni, dars jarayonida ko'rgazma materiallarning qo'llanilishi va ularning samaradorligi haqida so'z boradi.*

***Kalit so'zlar:** Grafik organayzer, "T" metodi, "Yo'qotilgan javohir" usuli, fe'lning munosabat shakllari, harakat va holat fe'llari.*

**Kirish.** Ona tili ta'limda yangi zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida o'qitish usullaridan foydalanish dars jarayonining sifatli va samarali bo'lishida muhim ahamiyat kasb etadi. O'qituvchi ma'lum bir mavzuni o'qitishda, o'quv jarayoni ishtirokchilarining yosh xususiyatlarini inobatga olgan holda, mavzuni tez va oson o'zlashtirib olishlari uchun 45 daqiqali dars jarayonida ma'lum bir turdagi texnik vositalar, turli jadvallar, slaydlar, pedagogik texnologiyalar va yangi turdagi metod turlaridan samarali foydalansagina darsning samaradorligi yuqori bo'lishiga erisha oladi. Taqdim etilayotgan o'quv materiallari (ko'rgazmalar, jadvallar, turli xildagi topshiriqli daftarchalar, slaydlar) o'tilayotgan mavzu doirasida bo'lishi shart, bunday ko'rgazmali materiallar o'qitilayotgan predmetning so'nggi yillarda erishgan yutuqlarini o'zida mujassam qilishi, ta'lim oluvchilarni zeriktirib qo'ymasligi kerak. O'qituvchidan ta'lim jarayoniga yangicha yondashuv asosidagi o'qitish usulari va yangi innovatsiyalarni tatbiq etish talab qilinadi.

**Adabiyotlar tahlili va metodologiya.** Fe'l shaxs, narsalarning harakat holatini bildirib keluvchi so'z turkumi hisoblanadi. Ushbu so'z turkumi boshqa turkumlarga nisbatan mavzu ko'lami kengligi, murakkab morfologik shakllarga ega ekanligi bilan alohida ta'kidlab o'tish lozim. Umumta'lim maktablarining faqat 6-sinfidagina fe'l so'z turkumi to'liq grammatikaga asoslangan o'rganilgan bo'lsa, milliy o'quv dasturi loyihasi asosida tuzilgan yangi 5-7 sinf ona tili darsliklarida spiralsimon o'qitish asosida mavzular asosida topshiriqlar berilgan. 5-sinflarda fe'lning ta'rifi, harakat va holat fe'llari; 6-sinfda 7-sinflarda "Fe'lning munosabat shakllari", "Fe'llarning tuzilishiga ko'ra turlari", "Ko'makchi fe'llar", "Fe'l zamonlari", "Shaxs-son shakllari" mavzularini o'qitish borasidagi topshiriqlar berilgan. Ona tili darslarida

# “O‘ZBEK FILOLOGIYASI: MUAMMO VA YECHIMLAR” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani



grafik organayzerlarning ahamiyati borasida qator ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan. Interfaol ta'lim va u bilan bog'liq masalalar, ona tili darslarini o'qituvchi tomonidan olib borilishida grafik organayzerlardan foydalanish yaxshi samara berishi mumkinligi, bajaradigan asosiy vazifalari, ulardan foydalanishdagi afzalliklar haqida R.Mavlonova, N.Voxidova, N.Raxmonqulova, R.Ishmuhamedov, M.Mirsoliyeva, O.U.Avlayev, S.N.Jo'rayeva, S.R.Mirzayeva, M. Sobirova, M. To'xtamirzayev, O.G'afforov, A.Gulomov, B.To'xliyev ishlarida ko'rsatib o'tilgan. O'.Abdullayeva, R.Sayfullayeva, M.Abuzalova, G.Toirova, O'.Tolipov, D.Ro'ziyeva, S.X.Muhamedova, M.D.Abdullayeva, Sh.Sh.Yuldasheva, Y.B.Eshmatova, Z.D.Rasulova, Sh.H.Quliyeva, A.R.Jo'rayev, M.Saidova, M.Tashibekova, A.Isaqov, Y.Nabijanov kabi olimlar tomonidan grafik organayzer bilan bog'liq tadqiqotlar amalga oshirilgan. Mustaqil davlatlar hamdo'stligi (MDH) mamlakatlari tadqiqotchilaridan G.K.Selevko, N.V.Bordovskoy, R.Kirilina, Y.A.Stepanova, A.S.Smirnova, G.A.Kondrashova, V.X.Mansurova, I.A.Olkova, N.A.Sytnikova Sh.Naraliyeva, S.Tajbenova ishlarida ta'lim tizimini isloh qilish maqsadida ishlab chiqilgan texnologiyalar, ta'lim jarayonida olingan ma'lumotlarni vizual vositalar yordamida ifodalash, grafik organayzerlar va ularning tarkibi, ulardan foydalanishning samarali usullari bayon qilingan. Yevropa va AQSh davlatlari tadqiqotchilaridan D.Ausubel (“Grafik organayzer” tushunchasini ilk marotaba fanga kiritgan), Sorenson, Stamper, Treysi Xarding-Striker, Kanglarning ishlarida “grafik organayzer” tushunchasi izohlangan; Xorton, Lovitt, Bergerudning ishlarida grafik organayzerlarning shakliy tuzilmasi tadqiq qilingan; Chin-Ven Chien, Xoang Tang Duk, Kristian Efrain Flores Pasaka, Bromli, I.İlter ishlarida grafik organayzerlar tadqiqiga oid masalalar yoritilgan. J.Novak, N.Gallenshteyn, Kusko, Jannet, Mauri Kalervo Ahlberg, Jorj K.Konli ishlarida “Konsepsiya xaritalari” va ulardan foydalanish holatlari tadqiq etilgan.

Y.Nabijanov ilmiy tadqiqot Ishida ona tili darslarida grafik organayzerlarning ta'lim tizimidagi ahamiyati haqida shunday fikr bildiradi. Grafik organayzerlarni sinfda, jamoa yoki guruhda yoki yakka shaxs o'rtasida qo'llash orqali o'qituvchi hamda o'quvchi orasidagi o'zaro hamkorlik muhiti paydo bo'ladi. Grafik organayzerlar asosida o'quvchining ijodiy fikrlash ko'nikmasi rivojlanib borishini [1] ta'kidlaydi. Morfologiya bo'limini o'qitishda ko'rgazmali va ko'rsatmali vositalardan foydalanish orqali ta'lim oluvchilarning fanga bo'lgan qiziqishlarini oshirishga xizmat qiladi. Ta'lim jarayonida grafik organayzerlardan foydalanish – o'tiladigan mavzuni zohiriy ifodalash, egallangan bilimlarni takrorlash va mustahkamlash

# “O‘ZBEK FILOLOGIYASI: MUAMMO VA YECHIMLAR” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani



yuzasidan belgilanadi [2] umumiy o‘rta ta’lim maktablarining har bir bosqichida ko‘rgazmali qurollardan foydalanishning qator afzaliklari bor:

- o‘quvchilarda mustaqil fikrlashga, kreativ faolligini oshirishga hamda kognitiv-pragmatik faoliyatini oshirishga xizmat qiladi;
- o‘quv faoliyati davomida o‘quvchi o‘z ko‘zi bilan ko‘rgan narsa, voqea-hodisa haqida eshitganidan ko‘ra ko‘rish orqali bir necha barobar tezroq o‘zlashtirishga erishib, uzoq vaqt xotirada saqlanib qolishini ta’minlaydi;
- dars jarayonida ko‘rgazmali vositalarni asos qilib olmaslik kerak, chunki u maqsadga erishishda ko‘prik vasifasini bajaradi;
- o‘qituvchi o‘zi to‘la anglamagan va tushunmagan ko‘rgazmali materilarni o‘quvchilar ommasiga taqdim etmasligi lozim;
- o‘quv jarayonida taqdimot qilinayotgan nazariy ma’lumotga asoslangan ma’lumot hayotiy misollar bilan bog‘langa holda ko‘rsatish kerak;
- bugungi globallashuv jarayonida AKT vositalarning keng tarqalishi, takomillashgani sababli ta’limga turli gadjetlardan foydalanish va yaratishga bo‘lgan qiziqishni oshirishga xizmat qilishiga erishish kerak.

Milliy o‘quv dasturi asosida yaratilgan 5-7 sinf yangi avlod ona tili darsliklarida o‘quvchilar auditoriyasining yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda illustratsiya, jadval, Q kodlar orqali audio va video materilarning berilishi bolalarda fanga bo‘lgan muhabbatini oshishiga sabab bo‘lib, o‘qishga bo‘lgan ishtiyoqi maksimal darajada oshishiga sabab bo‘ladi. Ona tili o‘qitishda ko‘rsatmalilik mavhum tushunchalarning mohiyatini anglashda [3, 168-bet] asosiy o‘rinni egallaydi.

**Muhokama va natija.** Fe’l so‘z turkumi maktab darsliklarining 5-7 sinflarida o‘qitiladi. 5-sinflarda harakat va holat fe’llari mavzusini o‘qitishda grafik organayzerlardan foydalanish orqali o‘quvchilarda fe’llarni guruhlarda ishlashda T metodidan foydanishni tavsiya etamiz. Bunda o‘quvchilarga fe’l turkumida oid so‘zlar beriladi va ularni harakat va holat fe’llar uyasiga joylashtiriladi.

*Yozmoq, yugurmoq, sarg‘aymoq, xafa bo‘lmoq, gaplashmoq, qimirlamoq, qizarmoq, yasamoq, ikkilanmoq, hayratlanmoq, anglamoq, suymoq, ranglamoq (rang bermoq), hayqirmoq, nazar tashlamoq, jamlamoq, kurashmoq, namlamoq, zanglamoq, olmoq, o‘ylamoq, so‘ylamoq, yashamoq, unutmok, yozmoq, yangramok.*

Fe’llar nimani atab kelishiga ko‘ra 2 xil bo‘ladi:

Harakat fe’llari	Holat fe’llari
------------------	----------------


**“O‘ZBEK FILOLOGIYASI:  
MUAMMO VA YECHIMLAR”**  
mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani



<p>Shaxs va narsalarining jismoniy faoliyati natijasida ro‘y bergan harakatni bildiruvchi fe‘llar <b>HARAKAT FE‘LLARI</b> hisoblanadi.</p>		<p>Shaxslarning ichki kechinmalari va narsalarning bir holatda ikkinchi holatga o‘tish jarayonini ifodalovchi fe‘llar esa <b>HOLAT FE‘LLARI</b> sanaladi.</p>
<p><i>yozmoq...</i></p>		<p><i>sarg‘aymoq...</i></p>

6-sinflarda fe‘lning munosabat shakllari mavzusini o‘qitishda zamon shakllarining qo‘llanishiga doir topshiriqlar berilgan.

Fe‘llarning zamon va shaxs-son qo‘shimchalari munosabat shakllari sanaladi. Bu shakllarga ega bo‘lgan har qanday fe‘l gapda kesim vazifasida keladi. Fe‘llar uch zamondan biriga tegishli harakat-holatni bildiradi:



6-sinf ona tili darsligida berilgan fe‘llarni uchta zamon shaklida ifodalang.

“Qaysi zamonda yashashimni istaysan” metodi ushbu usul orqali o‘quvchilarga maxsus qo‘shimchalar yordamida fe‘l hosil qilish vazifasi berilib so‘zlarni zamon ma‘nosida kelishini o‘rganib, o‘zlashtirib olishadi. Namunada berilgan fe‘llar ishtirokida gaplar tuzib, yozing. Bu orqali o‘quvchilarda gap tuzish va fe‘llarni 3 zamonda tushlash ko‘nikmasi shakllanadi.

**“O‘ZBEK FILOLOGIYASI:  
MUAMMO VA YECHIMLAR”  
mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani**



*To‘plamoq, saralamoq, yasamoq, so‘zlamoq, bormoq, yordam bermoq, amalga oshirmoq, qaror qilmoq.*

O‘tgan zamon: -di, (-i)b, -gan (-kan, -qan)	Hozirgi zamon: -yap, -moqda, -(a)yotib, - (a)yotir	Kelasi zamon: -a, -y, -(a)r
<i>To‘plagan, to‘pladi, to‘planib</i>	<i>To‘playapti, to‘plamoqda, to‘playotib</i>	<i>To‘pla, to‘play, to‘plar</i>

“Yo‘qotilgan javohir” usuli bunda o‘quvchilarga gap tarkibida fe‘l turkumiga mansub bo‘gan leksik birliklarning tushirib qoldirilgan holda beriladi. O‘quvchi uni o‘z o‘rnida zamonga moslab qo‘yishi kerak. Shu tariqa so‘zni o‘z o‘rnida tog‘ri va ravon ishlatish ko‘nikmasi rivojlanadi. *Berilgan gaplarni davom ettiring. Fe‘l zamonlari va shaxs-son qo‘shimchalariga e‘tibor qiling.* Bu topshiriq orqali o‘quvchilar fe‘llarning zamon shaxs-son qo‘shimchalarning qo‘llanishiga doir topshiriqlar asosida bilim, ko‘nikma, malakalarni rivojlantirishga xizmat qiladi.

*Tabiatni asrash har birimizning burchimiz, shuning uchun ota-bobolarimiz qadimdan avlodlarga tabiatni asrash kerakligini uqtirdilar.* (III shaxs, ko‘plikda, o‘tgan zamon).

*Maishiy chiqindilarni qayta ishlash ham tabiatni asrashning bir usuli hisoblanadi. Odamlar maishiy chiqindilarni qayta ishlashni yo‘lga qo‘yish orqali tabiat ne‘matlarini* (III shaxs, ko‘plikda, hozirgi zamon).

*Qayta ishlash jarayonida oldin ishlatilib, keyin yaroqsiz holatga kelgan plastmassa va metall buyumlar, qog‘ozlar hamda shisha idishlardan* \_\_\_\_\_ (kelasi zamon).

*Ulardan sanoat va kundalik hayot uchun kerakli buyumlar* \_\_\_\_\_ (III shaxs, hozirgi zamon).

**Xulosa.** Zamonaviy ta‘limni tashkil etishga qo‘yiladigan muhim talablardan biri ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida yuksak kafolatli natijalarga erishishdir. Bu talabni yuzaga keltirishda interfaol metodlar to‘la ishonchli vosita bo‘la oladi. Bugungi kunda mamlakatimizda o‘quvchilarning o‘quv va ijodiy faolliklarini oshiruvchi, ta‘lim-tarbiya jarayonining samaradorligini kafolatlovchi pedagogik texnologiyalarni qo‘llashga doir katta tajriba to‘plangan bo‘lib, u tajriba asosini interfaol metodlar tashkil etmoqda.

# “O‘ZBEK FILOLOGIYASI: MUAMMO VA YECHIMLAR” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani



## Foydalangan adabiyotlar:

1. Nabijanov Y. Ona tili darslarida grafik organayzerlardan foydalanish mavzusida dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2025.
2. To‘xliyev B., Ziyodova T., Shamsiyeva M. O‘zbek tilini o‘qitish metodikasi. – Toshkent, 2010-yil.
3. Yuldasheva D.N. O‘zbek tilini o‘qitish metodikasi (kognitiv-pragmatik yondashuv asosida): darslik. – Buxoro: “Sadriddin Salim Buxoriy” Durdona nashriyoti, 2021-yil, 424 b.
4. Mavlonova K., Qo‘Idosheva S., Hakimova N., Siddiqov M. Ona tili 5-sinf uchun darslik. – Toshkent, 2025-yil.
5. Azimova I., Mavlonova K., Quronov S., Tursun Sh., Hakimova N., Siddiqov M. Ona tili darslik. 6-sinf. – Toshkent: Respublika ta’lim markazi., 2022. – 224 b.